



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2026-YIL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
materiallar to'plami**

Toshkent shahri-2026

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:
Abdurazakova K.Y.
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

Annotatsiya

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).

Annotation

This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum hurmatli anjuman ishtirokchilari, aziz mehmonlar, ustozlar va talabalar!

So‘z avvalida bugungi anjumanda o‘zining qimmatli vaqtini ayamasdan ishtirok etayotgan Respublikamizning ta’lim muassasalari, ilmiy jabhalarida mehnat qilib kelayotgan fidoiy va jonkuyar professor-o‘qituvchilar, ilmiy-pedagog xodimlarga alohida minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Bugungi anjumanning “globallashuv davridagi yoshlar ma’naviyati”ga qaratilgani bejizga emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘tgan yil dekabr oyidagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida *“...yoshlarimizda kuchli ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish bo‘yicha barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilamiz”* degan so‘zlarni tilga olgan edi. Darhaqiqat, hozirgi global o‘zgarishlar davrida, dunyoda o‘ta keskin va tahlikali jarayonlar yuz berayotgan bugungi kunda, barcha kuch va imkoniyatlarni ishga solish, jumladan turli ilmiy anjuman va tadbirlarda muhokama qilib borish eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib turibdi.

Mazkur anjumanda, Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolarini o‘rganish, ularning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlash, jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, jumladan yoshlarning ijtimoiy faolligi va g‘oyaviy immunitetini kuchaytirish kabi masalalar muhokama qilinishi maqsad qilingan. Bu esa tabora kengayib borayotgan global axborot makonidagi dolzarb vazifalaridan biri – jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlash, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yoshlar ongiga sog‘lom dunyoqarashni va vatanga sadoqat ruhini singdirish uchun xizmat qiladi.

Anjuman ishida ilmiy-tadqiqotlar va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, zamonaviy, innovatsion ilmiy uslublar, raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali ijtimoiy-gumanitar fanlar istiqbolini ilmiy jihatdan belgilab berish ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Mazkur anjuman ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojiga to‘sqinlik qilayotgan dolzarb muammolarni aniqlash, ularning ilmiy yechimlarini taklif etish, zamonaviy ilmiy

maktablar faoliyatini takomillashtirish hamda fanlararo integratsiyani kuchaytirish orqali ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qiladi. Anjumanda shakllantiriladigan ilmiy takliflar jamiyatning ma'naviy hayotini yuksaltirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Tadqiqotlarning yangi metodologik yondashuvlar asosida olib borilishi, ijtimoiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Natijada, anjuman ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha ilmiy faoliyatning yangi bosqichga ko'tarilishiga, ilm-fan va jamiyat o'rtasidagi uzviy hamkorlikning kuchayishiga hamda ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Bugungi konferensiyada yoshlar qanotiga ham alohida e'tibor qaratilgan, ya'ni konferensiyada magistrlar va talabalar uchun alohida "Kelajak vorislari" sho'basi ham ish olib boradi. Bu esa ilm-fanga yangi qadam tashlayotgan yoshlarning nufuzli anjumanda ishtirok etishi va ko'nikma hosil qilishi uchun minbarlar vazifasini o'tashi shubhasiz.

Umuman olganda, bugungi konferensiya ustozlar oldiga qo'yilgan yuksak vazifa – faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, ma'naviyati yuksak, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashdek dolzarb masalaning yechimini topishda muhim qadam bo'ladi deb o'ylayman.

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik

TABRIK SO'ZI

Assalomu alaykum, muhtaram anjuman ishtirokchilari, aziz professor-o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilar! Sizlarni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mezbonligida o'tkazilayotgan "Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyati" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining ochilishi bilan samimiy muborakbod etaman.

Bugungi shiddatli globallashuv davrida "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini hayotga tatbiq etish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, ma'naviy taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqish — uchinchi Renessans poydevorini qo'yishning eng muhim shartidir. Ushbu anjuman aynan yoshlarimizning ma'naviy olamini asrash va ularda yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirishga qaratilgani bilan g'oyat ahamiyatlidir.

Konferensiya doirasida muhokama qilinadigan to'rtta asosiy yo'nalish jamiyatimiz hayotidagi eng hayotiy masalalarni qamrab olgan: Globallashuv va yoshlar masalasiga falsafiy talqin berish orqali zamonaviy tahdidlarga ilmiy nuqtayi nazardan yechim izlanishi; Yoshlar dunyoqarashini yuksaltirishning ijtimoiy-siyosiy omillarini tahlil qilish orqali davlatimiz taraqqiyotiga daxldorlik hissini kuchaytirish; Mustaqillik davrida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini sarhisob qilib, kelajak rejalarini belgilab olish; Yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini ishlab chiqish orqali ham ma'nan, ham jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

Quvonarlisi shundaki, konferensiya materiallari orasidan nafaqat tajribali olimlarning, balki "Kelajak vorislari" sho'basida faol ishtirok etayotgan iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy qarashlari joy olgan. Bu esa ilm-fanda ustoz-shogird an'analari davom etayotganidan dalolat beradi.

Ishonchim komilki, bugungi anjuman doirasidagi qizg'in bahs-munozaralar va takliflar yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash hamda milliy qadriyatlarimizni e'zozlashda yangi ufqlarni ochib beradi.

Barchangizga ilmiy ijod yo'lida ulkan zafarlar, anjuman ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman!

E'tiboringiz uchun rahmat.

Jamolidinova Odina Rasulovna,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti Xotin
qizlar Maslahat kengashi pedagogika fanlari
doktori, professor raisi.*

7. Bruner J. Actual minds, possible worlds. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1986. – 201 p.
8. Rosenblatt L. M. The reader, the text, the poem: The transactional theory of the literary work. – Carbondale: Southern Illinois University Press, 1978. – 193 p.
9. To'xtayev B. Shaxs dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2020. – 120 b.
10. Qodirov A. Yoshlar dunyoqarashini rivojlantirishning ijtimoiy omillari. – 2019. – № 2. – B. 60–65.
11. Rasulov Sh. Badiiy adabiyot orqali yoshlar tafakkurini rivojlantirish masalalari. – 2022. – № 1. – B. 75–80.
12. Nazarov D. Estetik tarbiya va uning shaxs rivojidadagi o'rni. – 2022. – № 3. – B. 55–60.
13. Qahhor A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018. – 400 b.
14. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 320 b.
15. Said Ahmad. Ufq. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 350 b

GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI

Mirsoliyeva Nargiza

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: 1285nmx@gmail.com

Tel: +998977206332

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/QQAU9511

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonining mazmun-mohiyati hamda uning yoshlar dunyoqarashiga ko'rsatadigan falsafiy ta'siri tahlil qilinadi. Unda globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari, yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi masalalari yoritilgan. Shuningdek, yoshlarning zamonaviy axborot makonidagi o'rni, ularning ijtimoiy faolligi va o'zlikni anglash muammolari falsafiy nuqtai nazardan ochib berilgan. Ishda globallashuv sharoitida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning tafakkurini rivojlantirish va ma'naviy immunitetini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *globallashuv, yoshlar, dunyoqarash, falsafa, ijtimoiy jarayonlar, ma'naviyat, qadriyatlar, milliy o'zlik, axborot makoni, madaniyatlararo muloqot, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik.*

Abstract: This article analyzes the essence and content of the globalization process and its philosophical impact on the worldview of youth. It examines both the positive and negative aspects of globalization, the spiritual and moral development of young people, and the harmony between national and universal values. Furthermore, from a philosophical perspective, it explores the role of youth in the modern information space, their social activity, and issues of self-awareness. Particular attention is given to supporting youth in the context of globalization, developing their thinking, and strengthening their moral and spiritual resilience.

Keywords: *globalization, youth, worldview, philosophy, social processes, spirituality, values, national identity, information space, intercultural dialogue, critical thinking, social activity.*

Globallashuv — bu zamonaviy dunyoning eng muhim jarayonlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarda davlatlar hamda xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayon ayniqsa yoshlar hayoti va dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois globallashuv va yoshlar masalasini falsafiy talqin qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Falsafiy nuqtai nazardan globallashuv insoniyat taraqqiyotining tabiiy bosqichi sifatida qaraladi. U insoniyatning yagona axborot makoniga birlashuvi, bilim va tajriba almashinuvi, madaniyatlararo muloqotning kengayishi kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Biroq bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, u rivojlanish, innovatsiya va imkoniyatlarni kengaytirsa, ikkinchi tomondan, milliy o'zlik, madaniy qadriyatlar va an'analar uchun muayyan xavf-xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Yoshlar globallashuv jarayonining eng faol ishtirokchilari hisoblanadi. Chunki ular zamonaviy texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlardan eng ko'p foydalanadigan qatlamdir. Natijada yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotga bo'lgan munosabati global axborot oqimi ta'sirida shakllanadi. Bu esa ularning fikrlash doirasini kengaytiradi, turli madaniyatlar bilan tanishish imkonini beradi va yangi bilimlarni tez o'zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, globallashuv yoshlar ongiga turli g'oyalar, qarashlar va madaniy ta'sirlarning kirib kelishiga sabab bo'ladi. Falsafiy jihatdan qaraganda, bu jarayon identitet (o'zlikni anglash) muammosini yuzaga keltiradi. Ya'ni yoshlar o'z milliy qadriyatlari bilan global qadriyatlar o'rtasida muvozanat topishi zarur bo'ladi. Agar bu muvozanat to'g'ri shakllanmasa, yoshlar orasida ma'naviy bo'shliq yoki begonalashuv holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Globallashuvning ijobiy jihatlaridan biri — bu bilim va innovatsiyalarga keng yo'l ochilishidir. Yoshlar dunyoning istalgan nuqtasidagi ta'lim resurslaridan foydalanish, xorijiy tajribalarni o'rganish va o'z salohiyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ularning raqobatbardoshligini oshiradi va global mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

Biroq globallashuvning salbiy tomonlari ham mavjud. Ayniqsa, ommaviy madaniyatning haddan tashqari keng tarqalishi milliy madaniyat va an'analarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, internet orqali tarqalayotgan zararli axborotlar yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli ham yuqori. Shu sababli yoshlar orasida axborot madaniyatini shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ma'naviy immunitetni mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi. Falsafiy talqinda yoshlar globallashuv sharoitida nafaqat iste'molchi, balki faol subyekt sifatida ham qaraladi. Ya'ni ular nafaqat global jarayonlardan ta'sirlanadi, balki o'zlari ham ushbu jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion g'oyalar, startaplar, ilmiy izlanishlar va ijtimoiy faollik orqali yoshlar jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shmoqda. Globallashuv jarayoni zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olib, ayniqsa yoshlar dunyoqarashi, tafakkuri va hayotiy qadriyatlariga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Falsafiy jihatdan qaralganda, globallashuv insoniyatning yagona makonga birlashuvi, bilim va madaniyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi jarayoni sifatida talqin etiladi. Bu jarayon yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, murakkab muammolarni ham yuzaga keltiradi. Avvalo, globallashuv yoshlarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Internet, axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar dunyoning turli burchaklaridagi voqea-hodisalar, ilmiy yangiliklar va madaniy jarayonlardan tezkor xabardor bo'lish imkoniga ega. Bu esa ularning bilim saviyasini oshiradi, yangicha tafakkur shakllanishiga xizmat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan bu holat bilish jarayonining kengayishi va inson ongining yangi bosqichga ko'tarilishi sifatida baholanadi. Shu bilan birga, globallashuv yoshlarning qadriyatlar tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Turli madaniyatlar, turmush tarzlari va qarashlarning aralashuvi natijasida yoshlar ongida yangi qadriyatlar shakllanadi. Bu jarayon ijobiy bo'lishi mumkin, ya'ni bag'rikenglik, ochiqlik va madaniyatlararo

muloqot rivojlanadi. Biroq, ba'zan bu milliy qadriyatlarning zaiflashishiga, o'zlikni anglash muammolarining yuzaga kelishiga ham olib keladi. Falsafiy jihatdan bu "identitet inqirozi" yoki "ma'naviy dualizm" sifatida izohlanadi.

Globallashuvning yana bir muhim ta'siri — bu yoshlarning ijtimoiy faolligi va hayotga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy yoshlar global muammolar, masalan, ekologiya, inson huquqlari, texnologik rivojlanish kabi masalalarga befarq emas. Ular nafaqat o'z jamiyatida, balki global miqyosda ham faol ishtirok etishga intiladi. Bu esa ularni global fuqarolik tushunchasiga yaqinlashtiradi. Biroq globallashuvning salbiy jihatlari ham mavjud. Ayniqsa, axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi yoshlar ongida chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Soxta ma'lumotlar, zararli g'oyalar va ommaviy madaniyat ta'siri yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli yuqori. Falsafiy nuqtai nazardan bu holat ongni manipulyatsiya qilish, axborot orqali boshqarish muammolari bilan bog'liq. Shuningdek, globallashuv individualizmning kuchayishiga ham olib keladi. Bu esa ayrim hollarda yoshlar orasida ijtimoiy aloqalarning susayishi, jamoaviylik hissining kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Natijada, inson o'zini jamiyatdan ajralgan holda his etishi, ma'naviy bo'shliq yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv va yoshlar masalasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, uni falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilish zarur. Bu jarayonda asosiy vazifa — yoshlarning global dunyoqarashini shakllantirish bilan birga, ularning milliy o'zligini, ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolishdan iborat. Faqat shu yo'l bilan barkamol, raqobatbardosh va ongli yosh avlodni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2016. – 12–18-betlar.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 133–145-betlar.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 45–52-betlar.
4. Giddens E. "Globalization and Its Discontents". – London, 2002. – 25–40-betlar.
5. Ulrich Beck. "What is Globalization?". – Cambridge, 2000. – 50–65-betlar.

6. Forobiy A.N. “Fozil odamlar shahri”. – Toshkent: Fan, 1993. – 67–80-betlar.
7. Quronov M. “Ijtimoiy falsafa asoslari”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 56–70-betlar.
8. Zamonaviy ilmiy maqolalar to’plami (globallashuv va yoshlar masalasi bo’yicha). – Toshkent, 2022. – 20–35-betlar.

TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDidagi IJTIMOiy MAS’ULiyATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIki YONDASHUvLAR MAZMUN MOHIYATI

Ibragimov Baxrom Ismoilovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/QBJB2752

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning davlat va jamiyat oldidagi ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish masalasi antropotsentrik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Antropotsentrik yondashuvning mazmun-mohiyati, uning shaxsga yo’naltirilgan ta’limdagi o’rni va ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, talabalarda ijtimoiy faollik, fuqarolik pozitsiyasi va mas’uliyat tuyg’usini shakllantirishda mazkur yondashuvning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda shaxs omili markazga qo’yilgan holda, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kuchaytirish va ularni ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash masalalari ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: *Antropotsentrik yondashuv, ijtimoiy mas’uliyat, talaba shaxsi, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faollik, ta’lim jarayoni, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, ma’naviy tarbiya, jamiyat, davlat.*

Bugungi globallashuv va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi, avvalo, yosh avlodning intellektual salohiyati, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyatiga bevosita bog’liqdir. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning davlat va jamiyat oldidagi burchini anglaydigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo’lgan shaxslar sifatida shakllanishi muhim pedagogik va ijtimoiy vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida shaxs omilini markazga qo’yuvchi, ya’ni antropotsentrik yondashuv asosida talabalarning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim yondashuvlari turli pedagogik va psixologik konsepsiyalarni o’z ichiga oladi. (2.1.1-rasm.)Har bir

Til brendini shakllantirish - o'zbek tilini zamonaviy va raqobatbardosh kommunikatsiya vositasi sifatida targ'ib qilish.

Bu yondashuvlar tilni “himoya qilish” emas, balki uni “rivojlantirish” strategiyasiga o'tishni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv o'zbek tili uchun faqat tashqi ta'sir emas, balki ichki qayta tashkillanish jarayonini ham anglatadi. Ayniqsa, yoshlar nutqi bu transformatsiyalarning asosiy maydoniga aylangan.

Tilning kelajagi uning “sofligi”da emas, balki uning moslashuvchanligi va funksional samaradorligida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, milliy lingvomadaniy asoslarni saqlab qolish strategik vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu bois, zamonaviy til siyosati konservativ himoya emas, balki muvozanatli rivojlanish tamoyiliga asoslanishi kerak: global ochiqlik va milliy barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash - asosiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati masalalari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2006.
2. Fozilov E. O'zbek tilida terminologiya muammolari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2010.
3. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2013.
4. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2012.
5. Safarov S. Pragmalingvistika asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2008.
6. Kaye D. B., Chen X., Zeng J., 2021. The Co-Evolution of Two Chinese Mobile Short Video Apps: Parallel Platformization of Douyin and TikTok.– Mobile Media & Communication, Vol.9, No. 2.

YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOIIY OMILLARI

Mirsoliyeva Nargiza

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: 1285nmx@gmail.com

Tel: +998977206332

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/CDYX4349

Annotatsiya: Mazkur ishda yoshlar dunyoqarashini yuksaltirishning falsafiy va ijtimoiy omillari tahlil qilinadi. Unda yoshlarning mustaqil fikrlashi, ma'naviy kamoloti, qadriyatlar tizimi va zamonaviy ta'limning o'rni yoritilgan. Shuningdek, oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhitning yoshlar ongiga ta'siri hamda ularning barkamol shaxs bo'lib shakllanishidagi ahamiyati ochib berilgan. Ishda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy islohotlarning o'rni ham alohida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *yoshlar, dunyoqarash, falsafiy omillar, ijtimoiy omillar, ma'naviyat, ta'lim, tarbiya, qadriyatlar, mustaqil fikrlash, ijtimoiy muhit, yoshlar siyosati, barkamol avlod.*

Abstract: This paper analyzes the philosophical and social factors that contribute to the development of youth worldview. It highlights the importance of independent thinking, spiritual development, value systems, and the role of modern education. The study also examines the influence of family, educational institutions, and the social environment on the consciousness of young people, as well as their significance in shaping a well-rounded personality. Particular attention is given to state youth policy, legal frameworks, and ongoing practical reforms aimed at supporting young people.

Keywords: *youth, worldview, philosophical factors, social factors, spirituality, education, upbringing, values, independent thinking, social environment, youth policy, well-rounded generation.*

Yoshlar masalasi bo'yicha qabul qilingan qarorlar davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu qarorlar yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi. Xususan, yoshlar siyosatiga oid qarorlar orqali ularning ta'lim olishi, kasb egallashi, bandligi va ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbekiston Respublikasida yoshlar masalasi bo'yicha bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun yoshlarning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Ushbu qonunda yoshlarning ijtimoiy himoyasi, ta'lim olish huquqi, iste'dodini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan prezident qarorlari va farmonlari ham muhim ahamiyatga ega. Ularda yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish, ularning bandligini ta'minlash, zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish hamda xorijiy tillarni o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan. Yoshlar daftari tizimining joriy etilishi orqali ehtiyojmand yoshlar

bilan individual ishlash yo'lga qo'yildi va ularga moddiy hamda ma'naviy yordam ko'rsatish mexanizmi yaratildi.

Bundan tashqari, ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar ham yoshlar masalasining ajralmas qismi hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi, yangi universitetlarning tashkil etilishi, grantlar sonining ko'paytirilishi yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni xalqaro tanlov va olimpiadalarga tayyorlash bo'yicha ham qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport va madaniyatga jalb etish ham muhim yo'nalishlardan biridir. Shu maqsadda turli sport inshootlari, kutubxonalar va madaniyat markazlari barpo etilmoqda. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, zararli odatlardan himoya qilish bo'yicha ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Umuman olganda, yoshlar masalasi bo'yicha qabul qilingan qarorlar ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga, jamiyatda faol va tashabbuskor shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning barqaror taraqqiyoti va kelajagini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar dunyoqarashini yuksaltirish masalasi bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki yoshlar — kelajak bunyodkorlari, ular qanday fikrlasa va qanday qadriyatlarni o'zida mujassam etsa, jamiyatning ertangi qiyofasi ham shunga mos ravishda shakllanadi. Shu bois yoshlar dunyoqarashini kengaytirish va boyitishning falsafiy hamda ijtimoiy omillarini chuqur o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, falsafiy omillar haqida so'z yuritganda, inson tafakkurining rivojlanishi, borliqni anglash jarayoni va hayotga bo'lgan munosabat muhim o'rin tutadi. Falsafa yoshlarni mustaqil fikrlashga, voqea-hodisalarni chuqur tahlil qilishga va ularga ongli baho berishga o'rgatadi. Ayniqsa, tanqidiy tafakkurning shakllanishi yoshlar dunyoqarashini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki tanqidiy fikrlash orqali yoshlar turli axborotlarni saralash, haqiqatni yolg'ondan ajratish, mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, qadriyatlar tizimi ham falsafiy omillarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi yoshlarning ma'naviy

kamolotiga xizmat qiladi. Insonparvarlik, adolat, erkinlik, mas'uliyat kabi tushunchalar yoshlar ongida mustahkam o'rnashsa, ularning dunyoqarashi yanada kengayadi va hayotga ongli yondashuv shakllanadi. Ijtimoiy omillarga keladigan bo'lsak, bu yerda avvalo oila, ta'lim tizimi va jamiyatning umumiy muhitini ta'kidlash lozim. Oila — yoshlar dunyoqarashining ilk shakllanish maskani. Oilada berilgan tarbiya, ota-onaning hayotga munosabati, axloqiy qadriyatlari bevosita yoshlarning fikrlash tarziga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun sog'lom ma'naviy muhitga ega oila yoshlarning barkamol shaxs bo'lib yetishishida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim tizimi esa yoshlar dunyoqarashini kengaytirishning asosiy ijtimoiy mexanizmlaridan biridir. Zamonaviy bilimlar, innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar orqali yoshlarning nafaqat bilim darajasi, balki fikrlash doirasi ham kengayadi. Ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar, muammolarni hal etish qobiliyati ham rivojlantirilishi lozim.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'i ham yoshlar dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri va ishonchli axborot manbalari yoshlarning bilimini oshirsa, noto'g'ri yoki zararli kontent ularning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois axborot madaniyatini shakllantirish, ya'ni axborotni tanlash va undan oqilona foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Yana bir muhim ijtimoiy omil — bu ijtimoiy muhit va tengdoshlar ta'siri. Yoshlar ko'pincha o'z tengdoshlariga taqlid qiladi, ularning qarashlari va xatti-harakatlaridan ilhomlanadi. Shu sababli sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, yoshlarni ijobiy faoliyatlarga jalb etish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, yoshlar dunyoqarashini yuksaltirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u falsafiy va ijtimoiy omillarning uzviy uyg'unligiga tayanadi. Mustaqil fikrlash, yuksak ma'naviyat, sifatli ta'lim va sog'lom ijtimoiy muhit — bularning barchasi yoshlarning keng dunyoqarashga ega, ongli va faol fuqarolar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2016. – 12–18-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari (yoshlar siyosatiga oid hujjatlar to'plami). – Toshkent, 2020. – 25–47-betlar.

3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 45–52-betlar.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O’zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: O’zbekiston, 2021. – 133–145-betlar.
5. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. – Toshkent: Fan, 1993. – 67–80-betlar.
6. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot, 2011. – 23–35-betlar.
7. Xasanboyev J., To’raqulov X. “Pedagogika”. – Toshkent: O’qituvchi, 2010. – 90–105-betlar.
8. Quronov M. “Ijtimoiy falsafa asoslari”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 56–70-betlar.
9. Zamonaviy ilmiy maqolalar to’plami (yoshlar tarbiyasi va dunyoqarashi bo’yicha). – Toshkent, 2022. – 15–28-betlar.

O’ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI

(O’zbek tadqiqotchilari yondashuvlari misolida)

Karimov Farxod Toshtemirovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o’zbek tili va adabiyoti universiteti katta o’qituvchisi

f.karimov8282@gmail.com

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/HVDX9792

Annotatsiya. Ushbu tezis oilaviy ajrimlarning sabablari va ijtimoiy-psixologik oqibatlarini o’zbek tadqiqotchilari yondashuvlari asosida tahlil qiladi. Ajrimlarga iqtisodiy, madaniy va psixologik omillar ta’siri ko’rsatilib, ularning jamiyat va bolalar tarbiyasiga salbiy ta’siri yoritilgan. Tadqiqot oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: *Oila, ajrim, ijtimoiy-psixologik oqibatlar, o’zbek jamiyati, oila barqarorligi, ma’naviy qadriyatlar, yosh oilalar.*

Annotation. This thesis analyzes the causes of family divorces and their socio-psychological consequences in society based on the approaches of Uzbek researchers. It highlights the impact of economic, cultural, and psychological factors on divorces and their negative effects on society and child upbringing. The study aims to develop practical recommendations for strengthening family stability.

MUNDARIJA.

T\ r	Mavzusi	beti
I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN		
1.	Sirojiddinov Sh.S. KIRISH SO'ZI.	4
2.	Jamolidinova O.R. TABRIK SO'ZI.	6
3.	Yunusov K.A. GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	8
4.	Kushayev U.R. QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI	13
5.	Sultonova N.E. SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.	19
6.	Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D. FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	23
7.	Islamova D.X., Abdusattorov A.B. YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI	28
8.	Islamova D.X. YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI	32
9.	G'ulamov O.G'. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI	37
10.	Ibrogimova G. MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.	42
11.	Ahadov SH. CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN	47

	CENTRAL ASIA.	
12.	Jumaqulova N., Arolova Z. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	56
13.	Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI	61
14.	Ibragimov B.I. TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI	65
15.	Shirnova Y.T., Isakulova S.E. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA	71
16.	Mirsoliyeva N. YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI	75
17.	Karimov F. O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI	79
II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI		
18.	Omonov B. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR	85
19.	Kuchkarov V. PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY	93
20.	Nazarov N. YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI	101
21.	Abdurazakova K. IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.	107
22.	Nazarova D., Boymirzayev O.O. YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN	113

	HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI	
23.	Kudratova U. TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI	119
24.	Jiyanmuratova G. YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR	123
25.	Ma'mirova O. DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	128
26.	Salayev F. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI	135
27.	Ibragmov J. MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR	138
28.	Ergashev K., Shaymardonova G. KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT	145
29.	Бозаров А. НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.	151
30.	Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI	159
31.	Mirraximov B. YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI	163
32.	Ergashev K.E. O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT	168
33.	Shirzad R. YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).	176
34.	Gong Yi Feng. THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS	189
35.	SHI FENGKAI. CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN	197

	COOPERATION.	
36.	Rakhimov M. YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN	201
III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI		
37.	Qahramon R. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	207
38.	Isakov B.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.	220
39.	Jurakulov J. YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.	224
40.	Yarkulov A. YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.	232
41.	Abdusalomova S. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.	241
42.	Abdusalomova S. GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.	248
43.	Mirzoyeva F., Boboxonov Sh. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.	252
44.	Muminov B. MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.	259
45.	Mirzoyeva F. O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.	268
46.	Qurbonova M. MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:	273

	MUVOZANAT MASALASI.	
47.	Mirzoyeva F., Rashidi O. BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).	278
48.	Abdurazakova K., Rustamova A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.	282
49.	Jo'raqulov J. SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.	291
50.	Xurromova S. IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.	300
51.	Razzakova N., Axunova D. IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI.	304
IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI		
52.	Alimboyeva R. YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.	314
53.	Alimboyeva R. BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.	319
54.	Alimboyeva R., Xolbekova Sh. YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.	324
55.	Xaitmetov F., Nuzilloeva G. MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.	330
56.	Alimboyeva R., Majidova O. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.	336

57.	Alimboyeva R., Norkobilova SH. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI.	342
58.	Sobirova D. ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON QADRI	349
59.	Toshburieva S. METHODOLOGICAL APPROACHES IN EDUCATION FOR THE DEVELOPMENT OF YOUNG WOMEN'S SPIRITUALITY	352

To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

